



TILSHUNOSLIKDA TASAVVUF ADABIYOTI LINGVOPOETIKASINING
AHAMIYATI, TIL VA JAMIYAT TARIXIDA TUTGAN O'RNI

Saodatxon Nosirjon qizi Qo'ziboyeva

Farg'ona davlat universiteti talabasi

saodatxonnosirjonqizi@gmail.com

ANNOTATSIYA: Ushbu maqolada so'fiyona adabiyot hamda tasavvufiy terminlar izohi, tasavvuf lingvopoetikasini tadqiq etish tamoyillari haqida so'z yuritiladi.

Kalit so'zlar: tasavvuf, so'fiyona, adabiyot, zohid, irfon, so'fiy, sufux, suffa, lingvopoetika, terminologiya, poetika,

ABSTRACT: This article talks about Sufi literature and the explanation of Sufi terms, the principles of researching Sufi linguo-poetics.

Key words: Sufism, Sufi literature, hermit, gnosis, Sufi, sufukh, suffa, linguo-poetics, terminology, poetics.

АННОТАЦИЯ: В данной статье говорится о суфийской литературе и объяснении суфийских терминов, принципах исследования суфийской лингвопоэтики.

Ключевые слова: суфизм, суфийская литература, отшельник, гнозис, суфий, суфух, суффа, лингвопоэтика, терминология, поетика.

KIRISH

"Buyuk ajdodlarimizning betakror va noyob ilmiy-ma'naviy merosi biz uchun doimiy harakatdagi hayotiy dasturga aylanishi kerak. Bu o'lmas meros hamisha yonimizda bo'lib, bizga doimo kuch-quvvat va ilhom bag'ishlashi lozim"

Islom dinining tarqalishi bilan O'rta Osiyoda arab, fors va turkiy tillarda turli janr va uslubdagi ulkan bir adabiyot vujudga keldi. Bu adabiyotning katta qismi esa tasavvuf g'oyalarini ifodalagan doston, qissa, hikoya, rivoyat, g'azal, ruboiy, qasidalaridir. Darhaqiqat, tasavvufiy me'ros ma'naviy qadriyat sifatida, milliy o'zlikni anglashda, farovon turmush tarzini yaratishda, yoshlarning intellektual salohiyati, ong-u tafakkurini, dunyoqarashini yuksaltirishda, vatanparvarlik, insonparvarlik kabi ma'naviy fazilatlarni shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Tasavvuf Islomda insonning aqliy dunyosi to'g'risidagi, ruhiy va axloqiy jihatdan komillik sari yo'llovchi diniy e'tiqod, ta'limotdir. Tasavvuf adabiyoti haqida fikr yuritar ekanmiz, bu adabiyotning vujudga kelishi dastavval arab va fors adabiyotida buyuk bir she'riyatning vujudga kelishi bilan boshlanganiga guvoh bo'lamiz. Tasavvuf o'zining g'oyalari bilan bir butunlikni tashkil etadigan umuminsoniy madaniyatning tarkibiy qismidir. Din, falsafa, adabiyot, san'atning hammasi shu muazzam daraxtning shoxlari bo'lib, uning ildizi xalqning ijodi, dunyoqarashi va fikriy kashfiyotlaridir. Inson butun ongli tarixi davomida yuzlab asotirlar, ideal qahramonlar, nazariya va ta'limotlarni yaratdi.



ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Tasavvuf adabiyoti juda ko'plab ma'lumotlar so'fiyona she'riyat, tasavvuf falsafasi yoritilgan she'riy asarlar haqidadir. So'fiyona adabiyot-Sharq adabiyotining o'ziga xos bir adabiy yo'nalishi. O'zbek adabiyotining ming yillik tarixini tasavvuf ta'siridan ayro holda tasavvur qilish qiyin, chunki tasavvuf milliy-ma'naviy hayot uchun asosiy e'tiqod falsafasi, o'ziga xos mafkura edi. Uning asosiy maqsadi axloqqa yo'naltirilganligi bilan ajralib turadi. Taniqli tasavvufshunos olim Najmiddin Komilov ta'rifi bilan aytganda, "Tasavvuf diniy e'tiqod, hikmat, falsafa, badiiy ijod omuxtaligidagi hissiy-tafakkuriy ta'limot bo'lib, ilohiy ishq bayonnomasidir. Uning mazmuni esa Islomning hayoti va ma'naviy ta'limoti bilan bog'liq.

Har bir yo'nalishning ichida juda ko'p janrlar bo'lgani kabi, tasavvufda ham qadimdan mavjud bo'lgan ruboiy, qit'a, g'azal, tarje'band, muxammas, masnaviy, doston, qissa kabi adabiy shakllar mavjud. Ya'ni bu janrlarga tasavvuf ruh va yangi mazmun bag'ishlab beradi. Tasavvuf adabiyoti lingvopoetikasi, mumtoz Sharq adabiyotida tasavvuf istilohlarining genezisi, semantik tahlili, matn poetikasi, so'fiyona matnlarning sharhi hamda tasavvufiy matnlarni o'rganadi. Islom olamida tasavvuf ta'limot sifatida VIII asrning o'rtalarida paydo bo'lgan. Dastlab u zohidlik ko'rinishida kurtak yoza boshlaydi. Zohid-tarki dunyo qilgan dindor kishi. Zohidlar uzlat va taqvonni pesha etgan bo'lishlariga qaramay ishq va irfon (ilohiy ma'rifat) dan yiroq kishilar bo'lgan.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Dunyodan ko'ngil uzgan lekin zohidlarga o'xshamaydigan, zehnu-zakovat, aqlu-farosatda tengsiz, toat-ibodati mustahkam, ruh kishilari so'fiylardir. Tasavvufni har taraflama o'rgangan ingliz olimi R. Nikolson bunday yozadi: «Musulmon bo'lib turib barcha dinlar va mazhablar bilan murosayu madora qiladigan va o'zaro kechirimlilik va mehri-bonlik asosida yashaydigan jami kishilar, agarchi rasman so'fiy bo'lmasalar ham, lekin ular (amalda) so'fiydirlar»

Darhaqiqat, peshqadam so'fiylarning aqidasi ham, axloqi ham shunday edi. Ular mazhabparastlikni nomunosib va Xudoga xush kelmaydigan illat, deb qaraganlar. Chunki barcha odamlar, Xudoning bandasi va har bir din Xudoga olib boradigan bir yo'ldir. Yo'llar bir-biridan farq qilishi mumkin, lekin yo'lovchining niyati, maqsadi uni boshqa yo'lovchilar bilan yaqinlashtiradi. Tasavvufiy ma'lumotning lingvistik jihatdan talqin etadigan bo'lsak, dastavval so'fiy so'ziga to'xtalamiz. So'fiy so'zi "saf" so'zidan kelib chiqqan chunki so'fiy Iloh yo'lga kirganlarning birinchi safida turuvchidir;

Ba'zi olimlar uni "suffa" so'zidan hosil bo'lgan deb aytadi. Ya'ni As'hobi Suffa Payg'ambar sallolohu alayhi vasallam hayotliklaridayoq tarki dunyo qilgan taqvodor kishi bo'lgan;

Bundan tashqari, so'fiy "safo" so'zi-bu toifaning qalbi sidqu safo oftobiday porlab turishiga ishoradir;

"Sufux"-biror narsaning xulosasi, bu jamoa xalqning xulosasi ekanligiga, "Sof"-Beruniyning ta'kidlashicha "suf" faylasuf so'zining ohirgi qismiga taalluqliligiga ishora qiladi.



Turkiyalik olim Abdulboqiy Go'pyonarli "Mavlono Jaloliddin,uning hayoti,falsafasi,asarlari"nomli kitobida tasavvufiy atamalar izohini o'z qarashlari orqali mufassal bayon etgan.Jumladan,u so'fiylarning sakkiz toifasi mavjud ekanligini aytib o'tib,ularni o'zaro ajratib ko'rsatadi.

Bilamizki,so'fiy arabcha "so'f" so'zidan kelib chiqib lug'aviy ma'nosi jun va jundan to'qilgan mato.Ya'ni, dastlabki so'fiylar ko'p hollarda jun chakmon yoki qo'y terisidan tikilgan po'stinda yurganliklariga aloqadordir.So'fiy "so'f" so'zidan yasalganligi,o'z navbatida tasavvuf,mustasuf,mutassuf,mutasavvuf so'zlarining hosil bo'lishiga xizmat qilgan. Til tadqiqiga bag'ishlangan ishlarda tilning ayni «ekspressiv vazifasi» atamasi bilan bir qatorda «tilning poetik vazifasi», «tilning badiiy vazifasi», «tilning estetik vazifasi» kabi atamalar ham qo'llanadi. Ammo shuni ham aytish kerakki, «tilning estetik vazifasi» atamasi filologik adabiyotlarda nisbatan ko'p ishlatiladi. Bunday bo'lishi ham tabiiy, chunki estetik vazifa tushunchasi ekspressivlik, badiiylik, poetiklik kabi bir qator tushunchalarni ham o'z ichiga olgan holda ularni umumlashtira oladi. Boshqacha qilib aytganda, mazkur tushunchalarga qaraganda estetik vazifa tushunchasining qamrovi anchayin keng.Tilning muayyan tarixiy davrdagi ko'rinishi,ayni holatga xos bo'lgan xususiyatlar leksik,fonetik va grammatik o'zgachalıklar,so'z semantikasi va kelib chiqish nazariyasi orqali topiladi.Ya'ni tilning hozirgi holati bilan umumiy va farqli jihatlarini ochib berish maqsadida lingvopoetika, tasavvuf bilan aloqaga kirishadi.Ma'lumki so'fiyona,orifona nazmda ko'p qo'llaniladigan tasavvufiy ramzlar,istilohlar mavjud,ularning poetik va lingvistik jihatlarini har tomonlama o'rganish,lisoniy va matniy xususiyatlarini ochib berishga xizmat qiladi.Tasavvuf,inson falsafasi, irfon tarixining mazmun mohiyati,uning Sharq va G'arb falsafiy tafakkuri rivojidadagi o'rni va tasavvufga oid masalalari, necha zamonlardan buyon juda ko'plab olimlarni qiziqtirib kelmoqda.Jumladan, ushbu sohaga oid maktab ochgan Nyu-York oliygohining professori,islomshunos,tasavvufshunos olim U.Chittik o'z tadqiqotlarida fors va arab tillarida yozilgan asarlarning tarjimalari bo'yicha uzoq va samarali ishni olg'a surgan. O'tgan asrning 30-yillarida atoqli rus tilshunosi L.V.SHcherba matn lingvistik talqinining asosiy vazifasi "Adabiy asarning g'oyasi va u bilan bog'liq emotsional mazmunni ifodalaydigan til vositalarini ko'rsatish"ekanligini ta'kidlagan edi.Ya'ni tasavvufiy asarlar lingvopoetikasi uchun,butun mazmunni o'zida jamlagan bir so'zning til vositalarini ochib berish orqali yaxlit g'oya vazifasini til vositalaridan aniqlab olish mumkin.Vaholanki bir so'zdagi asos va qo'shimchadan tortib,uning turli o'rinlarda turfacha qo'llanishi hamda,o'n, ba'zan esa undan ham ortiq ma'nolarda qo'llanishi,sodir bo'lgan vaziyat-holatlar,biz uchun mavhum bo'lgan ko'rinishlarni ochishda kalit vazifasini o'taydi.Va bundan tashqari, kelajak avlod uchun necha ming yillar avval iste'molda bo'lgan so'zlar,tushinilishi noaniq bo'lgan iboralarning tushinilish darajasini murakkabdan oson sari yetaklaydi.Ayniqsa,ko'plab g'azallarning baytlarida qofiya vazn ortiga berkitilgan atamalar izohidan tortib,uni poetika uchun xizmat qilayotgan asosiy unsurlarini o'quvchiga yetkazib berish ustuvor,asosiy masala hisoblanadi.Jumladan,XVII asrdagi Movorounnahrda yozilgan turkiy she'rlar ,Markaziy Osiyolik avliyo,she'riyat maydonidagi darvish Hoja Ahmad Yassaviyning "Devoni Hikmat"iga oid qo'lyozmalari ko'chirilib yozilgan,shuning bilan birga ushbu manbaning og'zaki va yozma shakllarida



terminologiya(atamashunoslik)ka doir ma'lumotlarni uchratishimiz mumkin.Tasavvuf lingvopoetikasi qatida yashirinib yotgan ma'nolar shu qadar teran,ko'lamliki,u durlar to'la dengizga o'xshaydi.Bu dengizga sho'ng'igan odam,albatta yangi ma'no durlarini qo'lga kiritib,baxramandlik baxtini tuyishi muqarrar.

REFERENCES:

- 1.Yo'ldoshev.M.Badiiy matn lingvopoetikasi.-Toshkent.Fan.2008.
- 2.Yo'ldoshev.M.Badiiy matn va uning lingvopoetik tahlili asoslari.-Toshkent.2007.
- 3.Komilov. N.Tasavvuf.-Toshkent.2009.
- 4.Tasavvuf adabiyoti lingvopoetikasi maqolalar to'plami.-Toshkent.2010.
- 5.Tasavvuf adabiyoti lingvopoetikasi o'quv qo'llanma.-Toshkent.2011.
- 6.Sulaymonov. J Abdurahmon ibn Xaldunning tamaddun taraqqiyoti haqidagi qarashlaridagi jamiyat tahlili.Academic research in Educational Sciences,Vol.2. Special Issue
- 7.Husayn Voiz Koshifiy.Futuvatnomai sultoniyy.A.Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti.1994
- 8.Rahmonberdiyev.I.Tasavvuf va so'fiy tushunchalarining qiyosiy tahlili.Oriental Renaissance:Innovative,educational,natural and social sciences,Voll.Issue3
- 9.refseek.com /link.springer.com